



THE NECESSITY OF DEVELOPING STUDENTS' LINGUOPRAGMATIC COMPETENCE IN TEACHING TRANSLATION

Charos Akbarovna Sharipova

(PhD) student

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

charossharipova@uzswlu.uz

<https://orcid.org/0009-0007-8640-4928>

<https://doi.org/10.36078/1778831926>

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations and practical aspects of developing linguopragmatic competence in teaching translation to students studying in the field of philology. The study thoroughly examines the concept of linguopragmatic competence, which covers not only pragmatic factors but also linguistic factors, and substantiates its significance and crucial role in the translation process. The article argues that translation is not just a lexically and grammatically correct transfer from one language to another, but also a process of accurately conveying communicative intent, cultural context, and pragmatic meanings. Relying on the ideas of scholars, the article provides an analysis of exercises and tasks that develop linguopragmatic competence. The role of these exercises and tasks in translation classes and their importance in solving pragmatic problems encountered by students are examined. In addition, an author-developed system of exercises is proposed. Within the scope of the research, a large-scale survey was conducted at 5 higher education institutions in our republic located in different regions and the curricula of these higher education institutions were analyzed. The results of the survey showed that while there is attention given to developing linguopragmatic competence in translation classes, shortcomings such as insufficient use of pragmatic exercises and lack of specialized methodological materials were also identified. From this perspective, recommendations are provided for developing a system of pragmatic exercises, creating specialized methodological resources, and using authentic resources in classes.

Keywords: linguo-pragmatic competence; translation training; pragmatic exercises; intercultural communication; communicative competence; pragmatic failure; contextual translation.

TARJIMANI O'RGATISHDA TALABALAR LINGVOPRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI

Charos Akbarovna Sharipova

Doktorant (PhD)

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya. Maqolada filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga tarjimani o'rgatishda lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning nazatriy asoslari va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda lingvopragmatik kompetensiya tushunchasi o'rganilib, bu kompetensiya nafaqat pragmatik, balki lingvistik omillarni ham qamrab olishi va uning tarjima jarayonidagi ahamiyati hamda muhim o'rni asoslandi. Maqolada tarjima shunchaki bir tildan ikkinchi tilga leksik va grammatik jihatdan to'g'ri o'girish emas, balki kommunikativ niyat, madaniy kontekst va pragmatik ma'nolarni ham to'g'ri yetkazish jarayoni ekanligi ta'kidlanadi. Olimlarning fikrlariga tayangan holda, maqolada lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar tahlili keltiriladi. Bu mashq va topshiriqlarning tarjima darslaridagi o'rni va ularning talabalar duch keladigan pragmatik muammolarni hal qilishdagi ahamiyati o'rganiladi hamda mualliflik mashqlar tizimi taklif qilinadi. Tadqiqot doirasida turli hududlarda joylashgan respublikamizning 5 ta oliy ta'lim muassasalarida keng ko'lamli so'rovnoma o'tkazildi va bu oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, tarjima darslarida lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan e'tibor mavjud, ammo pragmatik mashqlardan foydalanish va maxsus metodik qo'llanmalarining yetishmasligi kabi kamchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Shu nuqtayi nazardan, pragmatik mashqlar tizimini ishlab chiqish, maxsus metodik manbalarni yaratish va darslarda haqiqiy resurslardan foydalanish tavsiyalari berildi.

Kalit so'zlar: lingvopragmatik kompetensiya; tarjima ta'limi; pragmatik mashqlar; madaniyatlararo muloqot; kommunikativ kompetensiya; pragmatik muvaffaqiyatsizlik; kontekstli tarjima.

Kirish

Bugungi kun globallashuv jarayoni har tomonlama yetuk va zamon bilan hamnafas mutaxassislarni tayyorlash zaruratini tug'diradi. Filologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bo'lajak o'qituvchilar, tarjimonlar, muxbir va muharrirlar hamda bo'lajak tadqiqotchilardir. Kelajakda qaysi sohani egallashlaridan qat'i nazar, ularning kelgusi faoliyatlarida tarjima muhim o'rin tutadi. Tarjima bu shunchaki bir tildan ikkinchi tilga so'z va ma'nolarni grammatik va leksik jihatdan to'g'ri o'girish faoliyati emas, balki madaniy kontekst, kommunikativ niyat va pragmatik ma'nolarni ham

to'g'ri yetkazish jarayonidir. Shu bois, tarjima darslarida talabalar lingvopragmatik kompetensiyasini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Lingvopragmatik kompetensiya — tilni nafaqat to'g'ri, balki kontekstga va ijtimoiy-madaniy normalarga mos hamda maqsadga muvofiq qo'llay oilsh qobiliyatidir. Tarjima jarayonida bu kompetensiyaning zarurligi ayniqsa juda muhim. Asliyatning pragmatik ta'sirini, emotsional ohangini, madaniy farqlarni va muallif niyatini tarjima qilinayotgan tilga aniq yetkazish yuqori darajadagi lingvopragmatik kompetensiyaga ega bo'lishni talab qiladi. Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati haqida V. S. Li va Y. G. Davidovalarning tadqiqotlarida ko'rish mumkin. Tarjimada pragmatik mashq va topshiriqlarning tahlili xususida K. Bardovi-Harlig, R. Mahan-Taylor, M. Edwards, K. Sizer, G. Kasper va K. Xusainovalar izlanishlar olib borishgan.

Tarjima nazariyasi va amaliyoti sohasida, tarjimaning nafaqat leksik-grammatik, balki madaniy, kontekstual va pragmatik jihatlarini chuqur tadqiq etishda E. Nida (1964), L. Venuti (2013), E. Apter (2006), D. Bellos (2011), U. Eco (2004) kabi ko'plab olimlarning xizmatlari beqiyos. Bu olimlarning ishlaridagi asosiy mazmun tarjimada matnning pragmatik ta'sirini saqlash zaruriyati hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi tarjimani o'qitishda talabalar lingvopragmatik kompetensiyasini rivojlantirishning zaruriyati va ahamiyatini nazariy jihatdan asoslash, bu kompetensiyani rivojlantiruvchi mashqlar va topshiriqlarni tahlildan o'tkazish va ularning samaradorligini baholash, o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rovnomalarni tahlil qilish, taqqoslash hamda amaliy taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Asosiy qism

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim hozirgi kun ta'lim tizimining markaziy paradigmasiga aylangan bo'lib, bunday ta'lim talabalarni nafaqat nazariy bilimlar bilan ta'minlash, balki ularni amaliy faoliyatga tayyorlash, bu murakkab va tez o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli harakat qila olish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va qadriyatlarni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Kompetensiya muayyan fanni o'rganish jarayonida shakllantiriladigan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning yig'indisi, shuningdek, olingan bilimlar, ko'nikmalar va malakalar asosida biror-bir faoliyatni bajarish qobiliyatidir. Dastlab, bu atama ona tilida muayyan, asosan til bilan bog'liq

faoliyatni bajarish uchun zarur bo'lgan qobiliyatni ifodalagan [Azimov, Shukin 2009].

M. Vahobovning fikricha, kompetensiya o'quvchilar tomonidan egallangan bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llay olish layoqatidir [Vahobov 2016].

Bugungi kunda dunyo miqyosida ta'lim sohasida kompetensiya iborasi ancha keng qo'llanilyapti va bu borada bir qancha ishlar olib borilmoqda. Birgina O'zbekiston misolida oladigan bo'lsak, ta'lim jarayonida o'quvchilar va o'qituvchilar kompetentligini oshirish maqsadida bir nechta me'yoriy hujjatlar qabul qilingan va tatbiq etilib kelinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorida kompetensiya iborasiga to'xtalib o'tilgan va ta'rif berilgan (kompetensiya — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati). Ushbu qarorda keltirilishicha, O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi: kommunikativ kompetensiya, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi, milliy va umummadaniy kompetensiya va matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyalari.

Chet tilini o'rganishda kompetensiya til bilishning muayyan darajasini ifodalaydi va uchta o'zaro bog'liq kompetensiyani o'z ichiga oladi: tilshunoslik (yoki lingvistik) kompetensiya, nutqiy kompetensiya va kommunikativ kompetensiya. Zamonaviy adabiyotlarda kompetensiyalar ro'yxati ijtimoiy-madaniy, diskursiv, strategik, ijtimoiy kompetensiyalar bilan to'ldirilgan. E. G. Azimov va A. N. Shukin tomonidan tuzilgan "Metodik terminlar lug'ati"da kompetensiyalarning 25 turi keltirilgan va ta'riflangan [Azimov 2009].

Ma'lumki, kommunikativ kompetensiya — turli vaziyatlarda samarali, moslashuvchan va maqsadga muvofiq muloqot qila olish qobiliyatidir. Bu kompetensiya nafaqat til qoidalarini bilishni, balki o'z fikrini to'g'ri yetkaza olishni, boshqalarni tushunishni, muloqotni boshqarishni va ijtimoiy-madaniy normalarga mos ravishda muloqot qilishni ham o'z ichiga oladi. Savignonning yozishicha, kommunikativ kompetensiya dinamik va shaxslararo xarakterga ega va u muloqot vaziyatiga qarab o'zgarib boradi [Savignon 1983].

“Kommunikativ kompetensiya” iborasi birinchi marta Dell Hymes (1967,1972) va uning hamkasblari tomonidan yaratilgan. Ularning fikricha, kommunikativ kompetensiya – tildan ijtimoiy jihatdan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati, ya’ni faqat nima aytishni emas, balki qachon, qayerda va kimga aytishni bilishdir [Hymes 1972].

Umumyevropa CEFR hujjatida ta’kidlanishicha, kommunikativ til kompetensiyalari shaxsga lingvistik vositalar yordamida muloqotda faol harakat qilish imkonini beradi [Council of Europe 2001].

Haymesning da’vo qilishicha, til kompetensiyasi faqatgina Xomskiy aytganidek, grammatik kompetensiyadan iborat emas, ya’ni tildan foydalanishning barcha jihatlari: so’zlovchi, tinglovchi, xabar, voqea yoki voqea joyi va harakatlarni o’z ichiga olgan sotsiolingvistik yoki pragmatik kompetensiyadan ham tashkil topgan [Celce-Murcia 2000].

Canale va Swain kommunikativ kompetensiyani to’rtga ajratadi: grammatik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, diskursiv kompetensiya va strategik kompetensiya [Canale 1980].

D. L. Chiesa va boshqalar tomonidan yozilgan “Reconceptualizing language teaching: an in-service teacher education course in Uzbekistan” kitobida kommunikativ kompetensiya 4 turga bo’lib ko’rsatilgan: lingvistik, strategik, ijtimoiy-lingvistik va pragmatik [David L 2019].

Zamonaviy ta’lim tizimida chet tilini o’qitishning asosiy maqsadi faqat grammatik qoidalarni o’zlashtirish yoki leksik bilimlarni oshirish bo’lib qolmasdan, balki tilni kommunikativ maqsadlarda muvaffaqiyatli qo’llay olish qobiliyatini ham rivojlantirish hisoblanadi. Pragmatik kompetensiya, xususan, lingvopragmatik kompetensiyani egallash til o’rganuvchilar oldidagi dolzarb masalalardan biri bo’lmoqda. Chunki bu kompetensiya tilni kontekstda to’g’ri va maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyatidir. Shu bois, ko’plab lingvist olimlar va pragmatika sohasida ish olib borayotgan mutaxassislar pragmatik nazariyalarni amaliyotda qo’llashga kirishdilar. Ular chet tili o’rganuvchilarining pragmatik kompetensiyasini qanday rivojlantirish mumkinligini o’rganishni boshladilar.

Lingvopragmatika oxirgi yillarda zamonaviy tilshunoslikning istiqbolli sohalaridan biri bo’lib rivojlanib bormoqda. Lingvopragmatika — pragmatikaning tilshunoslikdagi bir yo’nalishi bo’lib, tilning ijtimoiy va kontekstual o’zgarishlarni qanday aks ettirishi va muloqotda qanday ishlatilishini o’rganadi. Bu soha lingvistik va pragmatik omillarni birlashtiradi.

Lingvopragmatika tilning grammatik va leksik tuzilmalaridan tashqari, uning ijtimoiy kontekstdagi ma’no va niyatlarni yetkazishdagi rolini tahlil

qiladi. Bu tilshunoslikni faqat tuzilma o'rganishdan kommunikativ jarayonlarni tushunish sari yo'naltiradi. Lingvopragmatik kompetensiya tushunchasi tilshunoslikdagi ushbu nazariy yutuqlarni amaliy sohada, xususan, til o'rganish va o'qitish jarayonlarida qo'llash zaruratidan kelib chiqdi.

Lingvopragmatika tilning ijtimoiy va pragmatik jihatlarini nazariy o'rganish bilan cheklanmadi, balki ushbu bilimlarni amaliy qo'llash zarurati lingvopragmatik kompetensiya tushunchasini keltirib chiqardi. Bu kompetensiya til ishtirokchilariga nutqiy vaziyatlarga mos ravishda til vositalarini tanlash va samarali muloqot qilish imkonini beradi.

Lingvopragmatik kompetensiya pragmatik kompetensiyaning muhim qismi sifatida ko'riladi. Pragmatik kompetensiya til ishtirokchilarining nutqiy vaziyatlarda tilni kontekstga mos va maqsadga muvofiq ishlatish qobiliyatini umumiy ma'noda ifodalaydi. Bu tilning ijtimoiy, madaniy va pragmatik qoidalarini tushunish hamda ularga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Lingvopragmatik kompetensiya til vositalarini (leksik, grammatik va sintaktik tuzilmalarni) muayyan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun kontekstga mos ravishda qo'llashga qaratilgan. Boshqacha aytganda, lingvopragmatik kompetensiya pragmatik kompetensiyaning tilga xos, lingvistik jihatlariga e'tibor qaratadi. Lingvopragmatik kompetensiya pragmatik kompetensiyaning tarkibiy qismi, lekin u tilning pragmatik ishlatilishiga xos bo'lgan maxsus ko'nikmalarga e'tibor qaratadi.

Shu bilan birga, lingvopragmatik kompetensiya faqatgina pragmatik kompetensiya ichidagi kompetensiya bo'libgina qolmasdan, balki lingvistik va pragmatik kompetensiyalarning integrallashgan shakli sifatida ham qaralishi mumkin. Umumyevropa kompetensiya tizmi CEFRda lingvistik va pragmatik kompetensiya haqida shunday deyiladi: lingvistik va pragmatik kompetensiya o'rtasidagi farqni oddiygina qilib shunday tushuntirish mumkinki, lingvistik kompetensiya tildan to'g'ri foydalanish bilan bog'liq bo'lib, til resurslari va til tizimi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi, pragmatik kompetensiya esa matnni yaratish jarayonida tilning haqiqiy qo'llanishini anglatadi. [CEFR 2020] Lingvopragmatik kompetensiya esa lingvistik kompetensiya va pragmatik kompetensiyaning birlashgan ko'rinishi bo'lib, u tilni faqat to'g'ri yoki maqsadga muvofiq ishlatish emas, balki kontekstda samarali ishlatish qobiliyatidir.

V. S. Li lingvopragmatik kompetensiyani o'rganish zarurligi haqida o'z tadqiqotida urg'u berib o'tadi. Uning fikricha, xorijiy tilni o'rganish kommunikativ kompetensiyani shakllantirish bilan chambarchas bog'liq. Tor ma'noda til kompetensiyasi tilning barcha darajalaridagi birliklarni bilish va ularni har qanday nutq tuzilmalarini shakllantirish va tushunish uchun qo'llash qoidalarini o'zlashtirishni anglatadi. Keng ma'noda esa til

kompetensiyasi insonning real hayot sharoitlarida samarali muloqot qila olish qobiliyatini bildiradi. Bu tushuncha, tashqi ko‘rinishda oddiy bo‘lib ko‘rinsa-da, nutq va nutqiy-fikriy (diskursiv) faoliyatning turli jihatlarini qamraydi. Shuning uchun kommunikativ kompetensiyaning bir nechta turlarini ko‘rib chiqish lozim, ulardan eng muhimi lingvopragmatik kompetensiyadir. Bu kompetensiya kommunikativ niyatlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun muayyan muloqot vaziyatlarida nutqiy xatti-harakatlarning strategiya va taktikasini tanlashga xizmat qiluvchi ko‘nikmalar va malakalar majmuasini o‘z ichiga oladi [Li 2014].

Y. G. Davidovanning ta‘rifi bo‘yicha, lingvopragmatik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning rivojlanishi madaniyatlararo muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta‘minlaydi, turli madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunishni yengillashtiradi va salbiy stereotiplarning paydo bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi. Muloqot sodir bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy kontekstni, xorijiy til madaniyati qadriyatlarini, pragmatik norma va qoidalarni hisobga olish, xushmuomala kommunikativ xatti-harakatlar strategiyalaridan foydalanish, leksik birliklarning konnotativ komponentlari va nutq ma‘nosini to‘g‘ri talqin qilish qobiliyati tillar tizimidagi farqlar, kommunikativ xatti-harakatdagi tafovutlar va ijtimoiy-madaniy qadriyatlarning turlichaligi tufayli yuzaga keladigan pragmalingvistik muvaffaqiyatsizliklardan qochishga yordam beradi [Davidova 2021].

X. Paluanovanning izohlashicha, lingvopragmatik kompetensiya til o‘rganuvchilarga murakkab ijtimoiy munosabatlarni boshqarish imkonini beradi, bu ularning o‘zini to‘g‘ri ifoda etish va muloqotdagi nozik ishoralarni talqin qilish qobiliyatini oshiradi. Lingvopragmatik tamoyillarni ELT dasturlariga integratsiya qilish tilning grammatik to‘g‘riligidan tashqariga chiqib, kontekstni talqin qilish va mazmunli muloqotda ishtirok etish qobiliyatini rivojlantiradi [Paluanova 2024].

Demak, pragmatik kompetensiya umumiyroq bo‘lsa, lingvopragmatik kompetensiya til birliklarini (so‘z, ibora, gap, nutqiy aktlar) muayyan vaziyatda to‘g‘ri tanlash va qo‘llash malakasini ifodalaydi. Masalan, sinonim so‘zlardan qaysi birini rasmiy matnda, qaysi birini norasmiy suhbatda ishlatish, murojaat shakllarini vaziyatga qarab moslashtirish shular jumlasidan. Pragmatik kompetensiya nutqiy faoliyatning umumiy strategiyalarini belgilasa, lingvopragmatika bu strategiyalarni til vositalarining qo‘llanish xususiyatlari bilan bog‘lab o‘rganadi. Shundan kelib chiqib, lingvopragmatik kompetensiya — shaxsning nutqiy vaziyatga mos holda til birliklarini tanlay olish va ularni samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Shunday ekan, tilni kontekstda muvaffaqiyatli qo‘llay olish

uchun, nafaqat tilni grammatik jihatdan egallash balki uni to'g'ri qo'llash bilimini ham egallash kerak.

Barcha tahlillarni jamlagan holda shunday xulosa qilamiz, lingvopragmatik kompetensiya kommunikativ maqsadga erishish uchun kerak bo'ladigan lingvistik bilimlar va pragmatik ko'nikmalarni til va nutq faoliyati jarayonida birlashtiruvchi umumiy kompetensiya turidir. Lingvopragmatik kompetensiyaga bergan mualliflik ta'rifimizni quyidagicha ifodalaymiz: Lingvopragmatik kompetensiya — til vositalarini ijtimoiy-madaniy kontekstga to'g'ri moslashtirib, maqsadga muvofiq ishlatish qobiliyatidir.

Lingvopragmatik kompetensiyaga chet tilini o'rganishning muhim omili sifatida qarash mumkin, ayniqsa, tarjima jarayonida bu kompetensiyaning ahamiyati juda katta. Tarjimada matnning nafaqat leksik ma'nosini, balki pragmatik ta'sirini ham saqlab qolish kerak. Tarjima sifatini ancha foizga oshirishda pragmatik kompetensiya muhim rol o'ynaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, adabiy tarjimalarda yumor va ironiyalarni saqlash uchun lingvopragmatik bilim juda ham zarur.

Tarjima shunday jarayonki, u nafaqat texnik, balki ijodiy va kontekstga bog'liq bo'lgan jarayon hamdir. Filolog talabalarning tarjimadagi bir qancha muammolarini lingvopragmatik kompetensiya hal qilishga yordam beradi. Jumladan, madaniy farqlarni bartaraf etishga, tarjimada kontekstni hisobga olishga va kommunikativ samadorlikni ta'minlashga lingvopragmatik kompetensiyaning o'rni katta.

Tarjima — bir tildagi matn, gap yoki nutqni boshqa tilga ma'no, uslub va mazmunini saqlab, yetkazish jarayonidir. Tarjima faqatgina so'zlarni bir tildan ikkinchi tilga o'girish emas, balki madaniy, tarixiy, ijtimoiy va lingvistik jihatlarni hisobga olgan holda ma'noni to'g'ri yetkazish san'atidir. Tarjima orqali turli tillarda so'zlashuvchi odamlar o'rtasida muloqot, bilim almashinuvi va madaniy yaqinlik yuzaga keladi. Tarjima faqat ikki tilni bilish masalasi emas, balki ma'no va muloqotni shakllantiruvchi madaniy, lingvistik va pragmatik farqlarni tushunishni ham talab qiladi. Tarjima sohasida faoliyat olib borgan bir qator olimlarning ishlari va fikrlarini tahlil qilib o'tsak.

Tarjima nazariyasi sohasiga muhim hissa qo'shgan amerikalik lingvist Y. A. Nida (1964) ning fikricha, tarjima faqat so'zlarni o'girish emas, balki ma'noni yetkazishdir. U "Dinamik muqobillik" tushunchasini kiritgan, ya'ni tarjima qilinadigan matn asliyat bilan bir xil ta'sir qilishi kerak. Nida ta'kidlaganidek, tarjima jarayoni madaniy kontekstni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim [Nida 1964].

Venuti (2013) tarjimaning ijtimoiy, madaniy va siyosiy jihatlarini o‘rganadi. U tarjimaning nafaqat tilni, balki jamiyatni ham o‘zgartirishi mumkinligini ta’kidlaydi [Venutti 2013].

Apter (2006) tarjimani madaniyatlararo aloqa va qiyosiy adabiyot sohasidagi muhim vosita sifatida ko‘rib chiqadi. U “tarjima maydoni” tushunchasini kiritadi, ya’ni tarjima orqali tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi chegaralar yo‘qoladi [Apter 2006].

Bellos (2011) tarjimaning qiziqarli jihatlarini o‘rganadi. U tarjimani nafaqat til, balki madaniyat, tarix va falsafa bilan bog‘liq jarayon sifatida ko‘rib, uni oddiy va qiziqarli tarzda tushuntiradi [Bellos 2011].

Italiyalik yozuvchi va tarjima nazariyotchisi U. Eko (2004)ning ta’kidlashicha, tarjima jarayoni asliyat bilan doimiy dialog bo‘lib, tarjimon matni yangi til va madaniyat kontekstiga moslashtirishi kerak. Eko ta’kidlaganidek, mukammal tarjima mavjud emas, lekin eng yaxshi tarjima — asliyatning ma’nosini va ruhini saqlab qoladigan tarjimadir. Tarjimon yangi til va madaniyat kontekstida asliyatning ma’nosi va ruhini saqlab qolish uchun doimiy ravishda qarorlar qabul qilishi kerak. Bu jarayon mukammal emas, lekin eng yaxshi tarjima — asliyatning mohiyatini saqlab qoladigan tarjimadir [Eco 2004].

Yuqoridagi olimlarning fikrlarini xulosa qilsak, tarjima shunchaki bir matni yoki ma’lumotni bir tildan ikkinchi tilga o‘girib qo‘yish emas, balki o‘sha til madaniyati, konteksti, ma’nolari va pragmatik xususiyatlarini chuqur tushunib, ularni boshqa tilning o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirgan holda yetkazish jarayonidir. Pragmatika, ya’ni tilning amaliy ishlatilishi, maqsadli auditoriyaning qabul qilish uslubi, ijtimoiy kontekst va nutqning maqsadini hisobga olishni talab qiladi. Tarjima orqali nafaqat so‘zlarning to‘g‘ri tanlanishi, balki matnning madaniy farqlari, emotsional ohanglari, ijtimoiy ta’siri va muallifning niyatini aks ettiruvchi pragmatik jihatlar ham saqlanib qolishi kerak.

Tadqiqotchi E. T. Erkayev nomzodlik dissertatsiyasida bir tildan ikkinchi tilga tarjima jarayonida quyidagi qiyinchiliklar sodir bo‘lishi haqida to‘xtalib o‘tgan:

- leksik qiyinchiliklar;
- grammatik qiyinchiliklar;
- stilistik qiyinchiliklar [Erkayev 2008].

Bizning fikrimizcha, bu qiyinchiliklar safiga pragmatik qiyinchiliklarni ham qo‘shish kerak. Chunki tarjima jarayonida pragmatik qiyinchiliklar kontekstni, tarjima qilinayotgan matnning teran ma’nosini, madaniy farqlarni hamda gapning yashirin maqsadini to‘g‘ri yetkazish bilan bog‘liq,

agar ular e'tibordan chetda qoldirilsa, tarjimonning fikrining buzilishiga yoki o'quvchi tomonidan noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Misol uchun, bir tilga xos ibora yoki atamani ikkinchi tilga mos ravishda tarjima qilishda tarjimon muqobil variant izlashi kerak. Shu bilan birga pragmatika nutqiy aktlar va ularning maqsad tilidagi moslashuvini hisobga olishni talab etadi, sababi matn leksik va grammatik jihatdan to'g'ri tarjima qilingan bo'lsa-da, lekin pragmatik jihatdan noto'g'ri bo'lsa, tarjimaning samarasi yo'qolishi mumkin. Bu qiyinchiliklarni e'tiborga olish, tarjima sifatini oshirishga va tillar o'rtasidagi madaniy ko'prikn mustahkamlashga xizmat qiladi.

Lingvopragmatik kompetensiya talabalarga matnni nafaqat so'zlar darajasida, balki ma'no, uslub va madaniy kontekst darajasida ham to'g'ri talqin qilishga yordam beradi. Bu, ayniqsa, adabiy, ilmiy va ijtimoiy matnlar tarjimasini kabi murakkab sohalarda muhimdir. Lingvopragmatik kompetensiyaning tarjimadagi ahamiyati juda katta: tarjima jarayonida so'zma-so'z tarjima ko'pincha yetarli emas, chunki har bir tilning o'ziga xos pragmatik xususiyatlari mavjud. Masalan, ingliz tilidagi "How are you?" iborasini o'zbek tiliga so'zma-so'z "Qalaysiz?" deb tarjima qilish mumkin, ammo ba'zi kontekstlarda bu savol shunchaki salomlashuv sifatida ishlatiladi va undan jiddiy javob kutilmaydi. Lingvopragmatik kompetensiya bunday nozikliklarni tushunishga yordam beradi.

Tarjimon turli madaniyatlar o'rtasidagi farqlarni tushunishi va matnni maqsadli tilning madaniy normalariga moslashtirishi kerak. Masalan, o'zbek adabiyotidagi maqollar yoki frazeologizmlarni arab yoki ingliz tiliga tarjima qilishda ularning mazmunini saqlab qolish uchun mos muqobillar topish zarur. Har bir matnning o'ziga xos maqsadi (masalan, axborot berish, ishontirish, ko'ngil ochish) bo'ladi. Lingvopragmatik kompetensiya tarjimonlarga ushbu maqsadni aniqlash va uni tarjima jarayonida saqlab qolish imkonini beradi. Tarjima jarayonida lingvopragmatik kompetensiya talabalarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiradi, ularni turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri muloqot qilishga o'rgatadi.

Tarjima fanlarida lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun mashqlar alohida ahamiyatga ega, chunki tarjima jarayoni tilning leksik, grammatik va madaniy jihatlarini birlashtirishni talab qiladi. Tarjima fanlarida mashqlarning o'rnini quyidagicha ifodalaymiz:

— tarjima faqat so'zma-so'z ko'chirish emas, balki matnning ma'nosi va maqsadini boshqa tilning madaniy kontekstiga moslashtirishdir. Mashqlar orqali talabalar turli madaniy farqlarni, frazeologik birliklarni va idiomalarini o'rganadi;

- tarjima jarayonida matnning maqsadli auditoriyaga mos tarzda uzatilishi muhim. Bu uchun talabalar real hayotiy vaziyatlarga asoslangan mashqlarni bajaradi, masalan, rasmiy xatlar, reklama matnlari yoki adabiy asarlarni tarjima qilish;
- tarjima mashqlari orqali talabalar turli nutqiy strategiyalarni (masalan, qisqartirish, izoh berish, moslashtirish) o‘rganadi, bu esa ularning lingvopragmatik qobiliyatlarini oshiradi.

Pragmatika bo‘yicha ta‘limning asosiy maqsadi o‘quvchilarning pragmatik ongini oshirish va ularga o‘rganilayotgan tilda o‘zaro muloqotga kirish imkoniyatlarini berishdir. Shuningdek, talabalarni o‘rganilayotgan tilning muayyan normalariga rioya qilishga majburlash emas, balki ularga o‘rganilayotgan tildagi pragmatik vositalar va amaliy mashqlarning keng doirasini tanishtirishdir. Bunday ta‘lim bilan o‘quvchilar madaniy o‘ziga xoslikni saqlab qolishlari va o‘rganilayotgan til muloqotida to‘liq ishtirok etishlari mumkin. O‘quvchilarga ikkinchi yoki chet tili pragmatikasini tanishtirish ularga o‘rganilayotgan til va unda so‘zlashuvchilar haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi. K. Bardovi-Harlig va R. Mahan-Taylorning fikricha pragmatikani o‘qitishning yagona qulay usuli mavjud emas. Ammo qaysi usuldan foydalanilmasin, mashqlar ikki muhim pedagogik amaliyotga ega bo‘lishi kerak: 1) haqiqiy til namunalarini misol yoki model sifatida ishlatish va 2) asl axborotni talabalarning talqinidan so‘ng taqdim etish. [Bardovi-Harlig, Mahan-Taylor 2003].

Pragmatik kompetensiyani sinfda turli vaziyatlar va mashg‘ulotlar orqali rivojlantirish mumkin. Talabalarning o‘z ona tilida mavjud bo‘lmagan yoki farq qiladigan pragmatik qoidalarga alohida e‘tibor berish zarur. Talabalar duch keladigan eng qiyin pragmatik muammolarni hal qilish uchun qiyosiy izlanishlar va ehtiyojlar tahlili o‘tkazilishi zarur. Melinda Edwards and Kata Sizerlar bir nechta mashq turlarini tavsiya qilishadi. Misol uchun talabalar o‘z ona tilidagi qisqa suhbatlarni ingliz tiliga tarjima qilishadi. Matn hech qanday grammatik va lug‘aviy qiyinchilikka ega emas, lekin matn butunlay til o‘rganuvchining o‘z ona tili tabiatida bo‘ladi, ya‘ni matn boshqa tilga tarjima qilinishi qiyin bo‘lgan turli pragmatik elementlarni o‘z ichiga oladi. Adabiy tarjimasi talabalarga beriladi va pragmatik farqlar tahlil qilinadi [Edwards, Csizer 2004].

K. Bardovi-Harligning fikricha, hech qaysi darslik talabalarga suhbatlar yoki dialoglarning pragmatik jihatdan to‘g‘ri modellarini taqdim etmaydi. U o‘z monografiyasida talabalarni juft bo‘lib, murakkab va tartibsiz dialoglarning yakunini tuzish ustida ishlaydigan mashqlarni taklif etadi. Misol uchun, M. Edwards and K. Sizerlarning yozishicha, K. Bardovi-Harlig mana bunday misollar keltirib o‘tadi.

B: Fine. I'll talk to you then.

A: I'd love to continue this conversation, but I really need to go now. I have to get back to the office.

A: Good-bye.

B: Well, let's get together soon.

A: Sorry I have to rush off like this.

B: Friday sounds good. Where shall we meet?

A: (looks at watch) You know, I really must be going now or I'll be very late. Can you give me a call tomorrow and we'll decide?

A: How about Friday?

B: That's OK. I understand.

B: So long.

Dialogning to 'g'ri varianti:

A: I'd love to continue this conversation, but I really need to go now. I have to get back to the office.

B: Well, let's get together soon.

A: How about Friday?

B: Friday sounds good. Where shall we meet?

A: (looks at watch) You know, I really must be going now or I'll be very late. Can you give me a call tomorrow and we'll decide?

B: Fine. I'll talk to you then.

A: Sorry I have to rush off like this.

B: That's OK. I understand.

A: Good-bye.

B: So long.

O'qituvchi muhokama uchun ushbu savollarni beradi.

— Who's trying to end the conversation? Who wants to continue to chat?

— How does one speaker try to signal that he/she wants to end the conversation?

— How do the speakers confirm their arrangement? [Bardovi-Harlig 1996]

K. Xusainova tadqiqotida kontekstga asoslangan vazifalarning ingliz-o'zbek tarjimalarida talabalarning so'zning asl ma'nosidagi tarjimasidan tashqari ma'nolarni yetkazish qobiliyatini qanday oshirishi mumkinligini o'rganadi. An'anaviy tarjima ta'limi ko'pincha grammatik va leksik aniqlikka e'tibor qaratib, pragmatik farqlarni e'tiborsiz qoldirishi, bu esa ohang, niyat yoki madaniy moslikni yo'qotadigan tarjimaga olib kelishi mumkin. Dialoglarni tarjima qilish, rolli o'yinlar va nutq aktlarini tahlil qilish kabi vazifalar orqali talabalar sotsiolingvistik va madaniy kontekstlarni chuqurroq tushunishga erishadilar. Tadqiqotchi sinf tajribalari, tarjima namunalari va talabalarning fikr-mulohazalariga asoslanib, ushbu usullarning kommunikativ va kasbiy ko'nikmalarni oshirishdagi samaradorligini ko'rsatadi [Khusainova 2025].

Kasper (1997)ning fikricha, chet tilini o'rganayotgan talabalarga pragmatikani o'rgatishda sinfdan tashqari kuzatuv topshiriqlari berish maqsadga muvofiq. Bunday kuzatuv topshiriqlari sotsiopragmatik yoki pragmlingvistik xususiyatlarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Sotsiopragmatik topshiriq, masalan, amerikalik ingliz tili so'zlovchilarining qanday sharoitlarda minnatdorchilik bildirishini kuzatish bo'lishi mumkin: qachon, qanday xizmatlar uchun va kimga minnatdorchilik bildiriladi. Kuzatuvlar ikki xil ochiq yoki rejalashtirilgan bo'lishi mumkin. Ochiq kuzatuvlarda muhim kontekst omillarini talabalar o'zlari aniqlaydi. Rejalashtirilgan kuzatuvlarda esa talabalarga kuzatish uchun aniq kategoriyalarni belgilab beruvchi kuzatuv varaqlari taqdim etiladi, masalan, so'zlovchi va tinglovchining maqomi va tanishlik darajasi va h.k.

Pragmlingvistik topshiriq minnatdorchilik bildirishning strategiyalari va lingvistik vositalariga qaratiladi — qanday tartib ishlatiladi va qo'shimcha ravishda qanday minnatdorchilik ifodalash usullari qo'llaniladi, masalan, sovg'a beruvchining e'tiborliliigi yoki sovg'a olgan shaxning xursandchiligini ifoda etishi. Minnatdorchilik bildirishning turli usullari qaysi kontekstlarda ishlatilishini o'rganish orqali sotsiopragmatik va pragmlingvistik jihatlar birlashtiriladi. Sinfdan tashqarida amalga oshirilgan kuzatuvlar sinfdan muhokama qilinadi, boshqa talabalarning ishlari bilan taqqoslanadi, o'qituvchi tomonidan sharhlanadi va tushuntiriladi. Bu muhokamalar kichik guruhlarda yoki butun sinf bilan birga amalga oshirilishi mumkin [Kasper 1997].

Y. G. Davidova lingvopragmatik kompetensiyani komponentlarini takomillashtirish maqsadida taklif etgan mashqlar va topshiriqlar to'plamini uch guruhga bo'ladi:

1-guruh mashqlari til konstruksiyasi va til qoidasi bilan tanishtirishga yo‘naltirilgan mashqlar, ya’ni talabalarga materialni eksplitsit taqdim etish orqali lingvopragmatik ma’lumotni tahlil qilishga yordam beruvchi mashqlar;

2-guruh mashqlari taklif etilgan bir necha variantlardan to‘g‘risini tanlash, gaplarni to‘ldirish va dastlabki konstruksiyalarni yangi shakllar bilan almashtirish, ya’ni transformatsiya qilishni nazarda tutuvchi mashqlarni o‘z ichiga oladi;

3-guruh mashqlari o‘rganilgan materiallarni nutqiy vaziyatlarda qo‘llash bo‘yicha topshiriqlarni taklif etadi [Davidova 2021].

Olimlarning fikrlariga tayangan holda, lingvopragmatik kompetensiyani takomillashtirish uchun quyidagi mashqlar tizimini taklif qilamiz. Tizim uch bosqichga bo‘lingan: tayyorgarlik (tahlil), asosiy (transformatsion), takomillashtirish (baholash va interaktiv). Har bir tur lingvopragmatikani (kontekst, madaniy farqlar, nutqiy maqsadlar) hisobga olgan holda ishlab chiqilgan (1-jadvalga qarang).


1-jadval

Lingvopragmatik kompetensiyani takomillashtirishdagi mashqlar tipologiyasi

Bosqichlar	Mashq turi	Rivojlantirish
1. Tayyorgarlik bosqichi: analitik mashqlar.	Pragmatik elementlarni (masalan, iltimos, ironiya) aniqlash va L1 bilan taqqoslash.	Pragmatik kontekstni tushunishni oshiradi.
2. Asosiy bosqich: transformatsion mashqlar.	Pragmatik muqobillarni topish (masalan, madaniy idiomani moslashtirish).	Instrumental resurslar orqali pragmatik moslashuvni o‘rgatadi.
3. Takomillashtirish bosqichi: interaktiv va baholash mashqlari	O‘yin va baholash, guruhlarda ishlab, pragmatik xatolarni muhokama qilish.	Motivatsiya va pragmatik baholash orqali kompetensiyani mustahkamlash.


Xulosa qiladigan bo'lsak, nazariy asos tarjimani o'rgatishni faqat leksik va grammatik jihatdan emas, balki pragmatik jihatdan ham boyitish kerakligini isbotlaydi. Pragmatik mashq va topshiriqlar esa bu jarayonni yanada mukammal va samarali qilishga xizmat qiladi.

Material va metodologiya. Mavzu doirasida 2025–2026 o'quv yilining noyabr-dekabr oylarida respublikamizning turli mintaqalarida joylashgan 5ta OTMda o'qituvchilar va talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma o'tkazishimizdan maqsad tarjima darslarida pragmatik bilimlar o'zlashtirilishi, lingvopragmatik kompetensiyaning rivojlanishiga qanchalik e'tibor berilishini va tarjima darslarida lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun mashq va topshiriqlardan foydalanish holatini aniqlashdir. So'rovnomada jami 326 nafar respondent qatnashdi. Shulardan 57 nafari o'qituvchilar (17.5%) va 269 nafari talabalaridir (82.5%). Ushbu so'rovnomada O'zDJTU, FarDU, SamDChTI, TISU va DTPI ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar va tahsil olayotgan talabalar ishtirok etishdi. O'qituvchilar uchun tuzilgan so'rovnoma asosan o'qituvchilarning yoshi, ish tajribasi va tarjima darslarida lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi fikrlarini bilishga qaratilgan. So'rovnomada qatnashgan aksariyat o'qituvchilar 30-40 yosh oralig'idagi o'qituvchilar bo'lib, ular umumiy o'qituvchilar sonining 45.6%ni tashkil etdi. (1-rasmga qarang)




1-rasm. So'rovnomada qatnashgan o'qituvchilarning yosh darajasi

So‘rovnoma natijalaridan shuni aniqladikki, biz tanlagan OTMLlarda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarning ko‘pchilik qismi 1–5 yilgacha ish tajribaga ega yosh o‘qituvchilardir (36.8%). (2-rasmga qarang). Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, o‘qituvchilarning ko‘p qismida hali yetarlicha kasbiy tajriba mavjud emas. Shuning uchun biz ilgari surayotgan nazariyani o‘qituvchilar ish faoliyatida tatbiq etish juda muhim, chunki bu ularga tarjima darslarini samarali olib borishlariga yordam beradi.



2-rasm. So‘rovnomada qatnashgan o‘qituvchilar ish tajribasi

Filolog talabalarda tarjima darsi faqat 4-kursda 1 semestr o‘qitilishini inobatga olgan holda, so‘rovnomaga ko‘proq 4-kurs talabalarini jalb qilishga harakat qildik (53.2%), lekin tarjima talabalarining o‘quv jarayonida doim kerakligini hisobga olib, boshqa kurs talabalarining ham fikrlarini bilish maqsadga muvofiq deb topdik. (3-rasmga qarang)



3-rasm. So‘rovnomada qatnashgan talabalar tahsil olayotgan kursi

Tadqiqot natijalari. O‘qituvchi va talabalarga bir qator savollar bilan murojaat qilindi. Savollarga berilgan javoblar natijalarini quyidagi jadvallarda keltirib o‘tamiz.

2-jadval

O‘qituvchilarning lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirishdagi faoliyati.

No	Savollar	Har doim %	Ba‘zan %	Kamdan kam %	Hech qachon%
1.	Tarjima darslarida talabalar matnni faqat grammatik jihatdan emas, balki madaniy va pragmatik kontekstda tushunishlariga e‘tibor berasizmi?	56.1	33.3	10.5	0
2.	Talabalarga nutqiy vaziyatga mos tarjima (masalan, rasmiy yoki norasmiy uslub) o‘rgatish uchun maxsus mashqlardan foydalanasizmi?	42.1	36.8	21.1	0
3.	Talabalarga xato tahlili orqali pragmatik xatolar (masalan, noto‘g‘ri salomlashish) haqida qayta aloqa berasizmi?	52.6	35.1	5.3	7
4.	Tarjimani o‘rgatishda madaniyatlararo farqlarni muhokama qilish uchun vaqt ajratasizmi?	44.6	46.4	5.3	3.7

5.	Darslarda haqiqiy hayotiy matnlar (reklamalar, elektron xatlar, suhbatlar)dan pragmatik maqsadlarda foydalanasizmi?	49.1	29.8	14	7
6.	Talabalarga pragmatik muvaffaqiyatsizlik (pragmatic failure) misollarini tahlil qildirish mashqlarini taklif qilasizmi?	21.1	45.6	24.6	8.8
7.	Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun maxsus metodik qo'llanma yoki resurslardan (masalan, pragmatics darsliklari) foydalanasizmi?	29.8	42.1	15.8	12.3

Yuqoridagi jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak, o'qituvchilar bergan javoblar umumiy holda ijobiy bo'lib, o'qituvchilarning asosiy qismi darslarda madaniy va pragmatik kontekstga e'tibor berishadi (56.1 % har doim, 33.3% ba'zan). Bu ko'rsatkich yaxshi hisoblanadi, chunki o'qituvchilarning juda ko'p qismi bu masalaga doimiy yoki muntazam e'tibor qaratishadi. Biroq natijalar ba'zi muhim jihatlarda kamchiliklar borligini isbotlaydi:

pragmatik muvaffaqiyatsizlik (pragmatic failure) misollarini tahlil qildirish mashqlari kam qo'llaniladi (faqat 21.1% har doim foydalanadi);
lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun maxsus metodik qo'llanma va resurslardan foydalanish past darajada (29.8% har doim, 12.3% hech qachon foydalanmaydi);
nutqiy vaziyatga mos tarjima o'rgatish bo'yicha maxsus mashqlardan foydalanish yetarli emas (42.1% har doim).

Xususan, oxirgi savolga javoblar tashvishli, o'qituvchilarning 12.3% maxsus metodologik resurslardan hech qachon foydalanmaydi va 15.8%i kamdan-kam foydalanadi. Bu o'qituvchilar uchun lingvopragmatik

kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha maxsus qo'llanmalar, darsliklar va uslubiy tavsiyalar etishmasligidan dalolat beradi.

3-jadval

Talabalarning tarjima darslarida lingvopragmatik kompetensiya rivojlanishi haqidagi fikrlari

№	Savollar	To'liq roziman	Roziman	Qisman roziman	Rozi emasman	Mutlaqo qarshi
1.	Tarjima darslarida matnni faqat so'zma-so'z emas, balki ma'nosi va vaziyatiga qarab tarjima qilish o'rgatiladi.	41.6	46.1	10.8	1.5	0
2.	O'qituvchi bizga turli nutqiy vaziyatlarda (masalan, do'stona yoki rasmiy) qanday gapirish kerakligini o'rgatadi.	36.2	49.6	11.9	1.3	1
3.	Tarjima qilganimda, agar madaniy xato qilsam, o'qituvchi buni tushuntirib, tuzatadi.	35.8	54.5	8.2	1.5	0
4.	Haqiqiy matnlar (xatlar, reklamalar, filmlar) dan pragmatik jihatdan foydalanamiz.	27.3	49.1	21.3	1.3	1
5.	O'qituvchi bizning tarjimalarimizdagi nutqiy niyatni (masalan, iltimos, taklif) to'g'riligini tekshiradi.	31.6	49.1	17.1	1.2	1
6.	Tarjima darslarida boshqa madaniyatda to'g'ri muloqot qilish o'rgatiladi.	34.6	46.8	14.5	3.1	1
7.	Lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun yetarlicha mashq va topshiriqlar beriladi.	30.7	49.1	17.2	1.5	1.5

Talabalar bergan javoblar ham umumiy holda ijobiy bo'lsa-da, ba'zi muhim farqlarni ochib beradi:

- talabalarning 87,7%i (41,6% to'liq roziman + 46,1% roziman) tarjima darslarida kontekstli tarjima o'rgatilishini tasdiqlaydi;
- 90,3%i madaniy xatolarni tuzatish bo'yicha qayta aloqa olishini ma'qullaydi;
- 85,8%i turli nutqiy vaziyatlarda to'g'ri gapirish o'rgatilishini tan oladi.

Biroq talabalar bergan javoblardan mavjud kamchiliklar ham aniq ko'rinadi:

- haqiqiy matnlardan foydalanish bo'yicha faqat 27,3% talaba to'liq roziman (eng past ko'rsatkich);
- yetarlicha mashq va topshiriqlar berilishi bo'yicha ham faqat 30,7% to'liq qanoatlanadi;
- 17,2% talaba yetarli mashqlar berilmaganiga qisman rozi, 1,5%i rozi emas va 1,5%i mutlaqo qarshi.

Shu bilan birga, biz so'rovnomaga o'tkazilgan yuqoridagi oliy ta'lim muassasalarining tarjima darslari uchun ishlab chiqilgan o'quv dasturlarini ham tahlildan o'tkazdik. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, filolog talabalar uchun 4 yil davomida faqat 1 semestr tarjima fani o'qitiladi va bu bizning nazarimizda juda kam. O'zDJTuning 2025–2026 o'quv yili uchun tasdiqlangan o'quv rejasiga ko'ra (2025-yil 28-avgustda tasdiqlangan), 60230100-filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabalari uchun "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" faniga umumiy 120 soat ajratilgan. Shundan auditoriya mashg'ulotlariga 48/46, mustaqil ta'limga esa 72/74 soat berilgan. FarDUda bu fan uchun umumiy 60 soat ajratilgan bo'lib, shundan 14 soat ma'ruza, 16 soat seminar mashg'ulotlari, 30 soat esa mustaqil ta'lim uchun berilgan. SamDChTIda ham 2025–2026 o'quv yili uchun "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" faniga umumiy 120 soat berilgan. Shu soatlarning 56 soati auditoriya mashg'ulotlari uchun, 64 soati esa mustaqil ta'limga bo'lingan. Ajratilgan soatlardan ko'rinib turibdiki, filolog talabalar uchun auditoriya mashg'ulotlari mustaqil ta'limga nisbatan kam, ya'ni talaba ko'proq mustaqil o'qib o'rganishi kerak.

Shundan xulosa qilish mumkinki, ajratilgan soatlarning kamligi nafaqat miqdoriy, balki sifat jihatidan ham muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki tarjima bu faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lmay, amaliy ko'nikmalarni muntazam mashq qilishni talab etadigan murakkab faoliyat turidir. Xususan, tarjima faniga ajratilgan soatlarning

cheklanganligi quyidagi muammolarni yuzaga keltiradi: birinchidan, talabalar ilmiy, badiiy, publitsistik, huquqiy matnlar bilan ishlash tajribasiga yetarli darajada ega bo'lmaydilar, ikkinchidan, tarjimada lingvopragmatik kompetensiyani shakllantirish uchun zarur bo'lgan amaliy mashg'ulotlar soni keskin kamayadi, uchinchidan, auditoriya mashg'ulotlarida o'qituvchi nazorati ostida amalga oshiriladigan tahlil va muhokama imkoniyatlari cheklanadi.

Mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning nisbatan ko'pligi esa o'z-o'zidan muammo emas. Biroq tarjima kabi amaliy fanda talaba mustaqil ishlash jarayonida yo'l qo'ygan xatolarini o'z vaqtida aniqlab, tuzata olmasligi mumkin. Bu esa noto'g'ri ko'nikmalarning mustahkamlanib qolishiga olib keladi.

Tahlil qilingan ta'lim muassasasining dasturlaridagi mavzularni ko'zdan kechirsak, dasturlarda pragmatika uchun mavzular ajratilgan, lekin har bir mavzuga pragmatika tarjimaning asosiy elementi sifatida kiritilmagan. Bu natijalar tarjima darslarida lingvopragmatik bilimni oshirish zaruriyati mavjudligini ko'rsatadi.

Natijalar muhokamasi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari tarjima darslarida lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish masalasida ijobiy tendensiyalarni hamda bir qator kamchiliklarni ko'rsatdi. Ijobiy jihatlardan o'qituvchilarning ko'p qismi tarjima darslarida madaniy va pragmatik kontekstning ahamiyatini tushunishar ekan. Bu esa zamonaviy ta'lim talablaridan bo'lgan kommunikativ va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning amaliyotga kirib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, darslarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalariga e'tiborning mavjudligi ham ijobiy natijadir. O'qituvchilarning 91%i (44.6% har doim+46.4% ba'zan) madaniyatlararo farqlarni muhokama qilish uchun vaqt ajratadi. Bu natija juda muhim, chunki professional tarjimada madaniyatlararo farqlarni anglash va tushunish zarurdir. Talabalarning 81.4%i ham bu masalaga darslarda yetarli darajada ahamiyat berilishini tasdiqlashadi. Qayta aloqa mexanizmi ham samarali dars natijalarining biridir. O'qituvchilarning 87.7%i pragmatik xatolarni tuzatadi va talabalarga qayta aloqa beradi. Pragmatik xatolar ko'pincha yashirin bo'ladi va buni talabalar o'zlari sezmasliklari mumkin. Bu pedagogik jarayonning samaradorligi uchun juda muhim. Talabalarning 90.3%i ham qayta aloqa olishni tasdiqlaydi.

Tadqiqotning eng muhim masalasi lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish uchun maxsus mashq va topshiriqlardan foydalanishning ahamiyatini isbotlashdir. Afsuski, natijalardan ko'rinib turibdiki, o'qituvchilarning 21.1%i pragmatik muvaffaqiyatsizlik (pragmatic failure) misollarini tahlil qildirish mashqlaridan doimiy ravishda foydalanishadi.

Bu jiddiy kamchilik, chunki pragmatik xatolarni tahlil qilmaslik samarasiz oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Maxsus metodik qo'llanma va resurslardan foydalanish holati ham qoniqarli darajada emas. 29.8% o'qituvchilar doimiy foydalanishi, 15.8%i kamdan-kam va 12.3%i hech qachon foydalanmasliklari jiddiy muammo hisoblanadi chunki maxsus ishlab chiqilgan o'quv-uslubiy majmualar zamonaviy ta'lim amaliyotining talabidir.

Biz mavjud muammoga quyidagi takliflarimizni bermoqchimiz:

1. Chet tili ta'limi odatda talabalarning leksik va grammatik bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan, ammo pragmatik bilimlarni rivojlantirish esa sust darajada. Aslida, leksik va grammatik bilimlar muloqotni tashkil etib, to'g'ri shakllantirishga zaruriy asos bo'lsa-da, pragmatik bilimlarsiz ular samarali muloqotni ta'minlay olmaydilar. Pragmatik bilimlarning etishmasligi grammatik jihatdan to'g'ri bo'lgan nutqni ham muvaffaqiyatsiz chiqishiga, muloqot jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelishiga va eng yomoni hattoki nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bois, chet tillarni o'qitishda ta'lim tizimiga pragmatik bilimlarni kuchaytirish zaruriyatini kirgizish kerak. OTM o'quv rejalariga leksik va grammatik bilimlarni berishga va rivojlantirishga asoslangan fanlar qatoriga pragmatik bilim beruvchi va rivojlantiruvchi fanlar tizimini qo'shish zarur. Natijada, bu bilimlar til o'rganuvchilarning akademik va professional muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

2. Tadqiqot davomida shuni aniqladikki, talabalar lingvopragmatik kompetensiyasini rivojlantirishga va takomillashtirishga ko'makchi bo'luvchi qo'llanmalar joriy etilmagan. Bu esa o'qituvchilar uchun darslarda lingvopragmatik kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan qo'llanmalarni ishlab chiqish zaruriyatini tug'diradi. Qo'llanmalarga lingvopragmatik kompetensiyani takomillashtirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimini kiritish maqsadga muvofiq.

Xulosa

Olingan natijalardan shuni xulosa qilish mumkinki, tarjima darslarida talabalarning lingvopragmatik kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Talabalarning madaniyatlararo muloqot ko'nikmalari va pragmatik ongga ega bo'lishi hamda kontekstga mos tarjima qilish qobiliyatlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida ayniqsa tarjimani o'rgatishda o'ta muhim masaladir. Tadqiqotning muammoni hal qilishdagi asosiy hissasini quyidagicha izohlaymiz:

— nazariy jihatdan lingvopragmatik kompetensiya tushunchasi keng qamrovda ochib berildi, lingvopragmatik kompetensiya lingvistik va pragmatik kompetensiyalarning integrallashgan shakli ekanligi asoslandi, tarjima jarayonida pragmatik qiyinchiliklar alohida kategoriya sifatida ko'rsatildi;

— tadqiqotning amaliy qismida respublikamizning 5 ta OTMda o'tkazilgan so'rovnoma tarjima darslarining real holatini ko'rsatdi, o'qituvchilar tarjimini o'rgatishda maxsus mashq va topshiriqlardan foydalanish zarurati isbotlandi;

— tadqiqotda olimlar tavsiya etgan mashq va topshiriqlar tahlil qilindi va ularning qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqildi, bir qator mashq turlari: kontekstga asoslangan vazifalar, pragmatik xatolar ustida ishlash, dialoglarni tarjima qilish, sinfdan tashqari kuzatuv topshiriqlari samarali metodlar sifatida aniqlandi.

Lingvopragmatik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun pragmatik mashqlar tizimini ishlab chiqish, maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalar joriy etish va tarjima darslarida haqiqiy hayotiy resurslardan foydalanish zarur. Bu qilinajak tadbirlar talabalarni sifatli tarjima qilishga o'rgatadi va madaniyatlararo muloqotda samarali faoliyat olib borishga tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Азимов Э. Г., Щукин А. Н. Словарь методических терминов (теория и практика преподавания иностранных языков). — СПб.; М., 2009. — С. 107–108.

Вахобов М. М. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш — замонавий таълим парадигмаси сифатида // Замонавий таълим = Современное образование. — 2016. — № 10. — Б. 5.

Ли В. С. О лингводидактических основах формирования коммуникативной компетенции при изучении русского языка как иностранного // Современное образование в России и за рубежом. — Чебоксары, 2014. — С. 253–256.

Давыдова Ю. Г. Формирование лингвопрагматической компетенции студентов вузов на практических занятиях по иностранному языку // Pedagogy. Theory & Practice. — 2021. — Т. 6, № 1. — С. 55–61.

Палуанова Х. The role of linguopragmatics in improving the teaching of English // Актуальные вопросы языковой подготовки в глобализирующемся мире. — 2024. — Т. 1, № 1. — С. 404–409. —

URL: <https://inlibrary.uz/index.php/issues-language-training/article/view/33562>

Nida E. A. *Toward a Science of Translating*. — Leiden: E. J. Brill, 1964. — 331 p.

Venuti L. *Translation Changes Everything: Theory and Practice*. — London; New York, 2013. — 271 p.

Apter E. *The Translation Zone*. — Princeton: Princeton University Press, 2006. — 312 p.

Bellos D. *Is That a Fish in Your Ear? Translation and the Meaning of Everything*. — New York, 2011. — 337 p.

Canale M., Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing // *Applied Linguistics*. — 1980. — Vol. 1, № 1. — P. 1–47.

Celce-Murcia M., Olshtain E. *Discourse and Context in Language Teaching: A Guide for Language Teachers*. — Cambridge: Cambridge University Press, 2000. — 16 p.

Council of Europe. *Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume*. — Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. — 137 p. — URL: <https://www.coe.int/lang-cefr>

Eco U. *Mouse or Rat? Translation as Negotiation*. — London: Phoenix, 2004. — 200 p.

Erkayev E. T. *Bo'lajak chet tili muallimi ta'limida qo'llanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi*. — Toshkent, 2008. — 50 b.

Bardovi-Harlig K., Mahan-Taylor R. Introduction to Teaching Pragmatics // *English Teaching Forum*. — 2003. — July. — P. 37–39.

Edwards M., Csizer K. Developing Pragmatic Competence in the Classroom // *English Teaching Forum*. — 2004. — July. — P. 16–21.

Bardovi-Harlig K. *Pragmatics and Language Teaching: Bringing Pragmatics and Pedagogy Together* // *Monograph Series*. — 1996. — Vol. 7. — P. 21–39.

Chiesa D. L. (Ed.), Azizov U., Khan S., Nazmutdinova K., Tangirova K. *Reconceptualizing Language Teaching: An In-Service Teacher Education Course in Uzbekistan*. — 2019. — 20 p.

Hymes D. On Communicative Competence // Pride J. B., Holmes J. (eds.). *Sociolinguistics*. — Harmondsworth: Penguin Books, 1972. — P. 269–293.

Khusainova K. Developing Translation Students' Pragmatic Competence through Context-Based Activities in English-Uzbek Language Pairs // International Conference on Multidisciplinary Science. — 2025. — Vol. 3, № 3. — P. 77–80.

Kasper G. Can Pragmatic Competence Be Taught? — Honolulu: University of Hawai'i, Second Language Teaching & Curriculum Center, 1997. — URL: <http://www.nflrc.hawaii.edu/NetWorks/NW06/>

Savignon S. J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. — Reading, MA: Addison-Wesley, 1983. — 9 p.

References

Azimov, E. G., Shchukin, A. N. (2009). *Slovar metodicheskikh terminov teoriya i praktika prepodavaniya inostrannykh yazykov* (Dictionary of methodological terms theory and practice of foreign language teaching), Saint Petersburg, Moscow. (In Rus.)

Vakhobov, M. M. (2016). *Zamonaviy ta'lim* Sovremennoe obrazovanie, No 10, 5. (In Uzb.)

Li, V. S. (2014). *Sovremennoe obrazovanie v Rossii i za rubezhom*, 253–256. (In Rus.)

Davydova, Yu. G. (2021). *Pedagogy Theory and Practice*, 6 (1), 55–61. (In Rus.)

Paluanova, Kh. (2024). *Aktualnye voprosy yazykovoii podgotovki v globaliziruyushchemsya mire*, 1 (1), 404–409, retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/issues-language-training/article/view/33562> (In Uzb.)

Nida, E. A. (1964). *Toward a Science of Translating*, Leiden, E. J. Brill.

Venuti, L. (2013). *Translation Changes Everything Theory and Practice*, London, New York.

Apter, E. (2006). *The Translation Zone*, Princeton, Princeton University Press.

Bellos, D. (2011). *Is That a Fish in Your Ear Translation and the Meaning of Everything*, New York.

Canale, M., Swain, M. (1980). *Applied Linguistics*, 1 (1), 1–47.

- Celce-Murcia, M., Olshtain, E. (2000). *Discourse and Context in Language Teaching A Guide for Language Teachers*, Cambridge, Cambridge University Press.
- Council of Europe (2020). *Common European Framework of Reference for Languages Learning Teaching Assessment Companion Volume*, Strasbourg, Council of Europe Publishing, retrieved from <https://www.coe.int/lang-cefr>
- Eco, U. (2004). *Mouse or Rat Translation as Negotiation*, London, Phoenix.
- Erkayev, E. T. (2008). *Bolajak chet tili muallimi talimida qollanadigan tarjima mashqlarining lingvodidaktik tasnifi* (Linguodidactic classification of translation exercises used in foreign language teacher education), Tashkent. (In Uzb.)
- Bardovi-Harlig, K., Mahan-Taylor, R. (2003). *English Teaching Forum*, 37–39.
- Edwards, M., Csizer, K. (2004). *English Teaching Forum*, 16–21.
- Bardovi-Harlig, K. (1996). *Monograph Series*, 7, 21–39.
- Chiesa, D. L., Azizov, U., Khan, S., Nazmutdinova, K., Tangirova, K. (2019). *Reconceptualizing Language Teaching an In-Service Teacher Education Course in Uzbekistan*.
- Hymes, D. (1972). *Sociolinguistics*, 269–293.
- Khusainova, K. (2025). *International Conference on Multidisciplinary Science*, 3 (3), 77–80.
- Kasper, G. (1997). *Can Pragmatic Competence Be Taught*, Honolulu, University of Hawaii Second Language Teaching and Curriculum Center, retrieved from <http://www.nflrc.hawaii.edu/NetWorks/NW06/>
- Savignon, S. J. (1983). *Communicative Competence Theory and Classroom Practice*, Reading, MA, Addison Wesley.